

MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING O‘RNI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrda “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4862-son Qarori tasdiqlanishi yuqorida Prezidentimiz tomonidan qayd etib o‘tilgan fikrlarning hayotdagi isboti sifatida qarash mumkin. Ushbu Qaror aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, kambag‘allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirishga qaratilgan. Ushbu qarorda aholini ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarni kichik tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga jalb etish, mikromoliyalash tizimini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan. Hududda qulay ijtimoiy-iqtisodiy muhitning shakllanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik salohiyatidan samarali va optimal foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi

Oltinsoy tuman statistika bo‘limi boshlig‘i:

O.Xasanov